



THE ISSUE OF THE ORIGIN OF THE ASHTARKHANID DYNASTY IN THE WORK “BAKHR AL-ASRAR”

Siyovash Khafizov

1st-year Basic Doctoral Student

Tashkent State University of Oriental Studies

siyovashh@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Bakhr al-Asrar, Ashtarkhanids, Janids, Tuqay-Timurids, genealogy, Mingqishloq Khan, Yormuhammad Khan and others.

Received: 18.07.26

Accepted: 19.07.26

Published: 20.07.26

Abstract: This study examines the issue of the origin of the Ashtarkhanid dynasty on the basis of Mahmud ibn Wali’s work Bakhr al-Asrar. In order to address this issue, Bakhr al-Asrar, regarded as a primary historical source, was selected as the main object of research. A detailed analysis of the manuscript copies of Bakhr al-Asrar revealed that, in the fourth section of the sixth volume of the work, the author provided a comprehensive genealogy of the Ashtarkhanid dynasty, whose representatives lived and ruled until the middle of the seventeenth century. It was demonstrated that the genealogy of Nadr Muhammad Khan can be traced back to Genghis Khan through sixteen generations. Furthermore, a genealogical chain extending from Genghis Khan to Nadr Muhammad Khan was reconstructed. The study also explains, through specific examples, why representatives of this dynasty are referred to in some scholarly works as the “Janids” and the “Tuqay-Timurids,” and clarifies the origin of the term “Ashtarkhanids”. In addition, the research confirms once again the importance of strengthening kinship ties and gaining broad public prestige in the process of acquiring political power and state authority.

“BAHR UL-ASROR” ASARIDA ASHTARXONIYLAR SULOLASINING KELIB CHIQISHI MASALASI

Siyovash Hafizov*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**tayanch doktoranti*siyovashh@gmail.com*Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: “Bahr ul-asror”, Ashtarxoniylar, Joniylar, Toʻqay Temuriylar, shajara, Mingqishloqxon, Yormuhammadxon va boshqalar.

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot ishida Mahmud ibn Valining “Bahr ul-asror” asari asosida Ashtarxoniylar sulolasining kelib chiqishi masalasi koʻrib chiqildi. Ushbu masalani hal qilish uchun birlamchi manba hisoblangan “Bahr ul-asror” asari tadqiqot obyekti sifatida belgilandi. “Bahr ul-asror” asari qoʻlyozma nusxalarini chuqur tahlil qilish natijasida, muallif mazkur kitobning VI jildi toʻrtinchi ruknida XVII asr oʻrtalarigacha boʻlgan davrda yashab, faoliyat yuritgan Ashtarxoniylar sulolasi shajarasini batafsil keltirganiga guvoh boʻlindi. Nadr Muhammadxonning shajarasi oʻn olti avlod orqali Chingizxonga borib taqalishi isbotlandi. Chingizxondan to Nadr Muhammadxongacha boʻlgan shajara zanjiri tuzildi. Mazkur sulola vakillari baʼzi adabiyotlarda “Joniylar” va “Toʻqay Temuriylar” deb nomlanishi va “Ashtarxoniylar” soʻzi qayerdan kelib chiqqani misollar yoramida tushuntirib oʻtildi. Davlat boshqaruvini qoʻlga olishda oʻzaro qarindoshlik aloqalarini mustahkamlash va xalq orasida katta nufuzga ega boʻlish muhimligiga yana bir karra amin boʻlindi.

**ВОПРОС ПРОИСХОЖДЕНИЯ ДИНАСТИИ АШТАРХАНИДОВ В
ПРОИЗВЕДЕНИИ «БАХР АЛ-АСРАР»**

Сиёваши Хафизов*Ташкентский государственный университет востоковедения**базовый докторант 1-го курса*siyovashh@gmail.com*Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: «Бахр ал-асрар», Аштарханиды, Джаниды, Тукай-Тимуриды, генеалогия, Мингкишлакхан, Ярмухаммадхан и другие.

Аннотация: В данном исследовании рассматривается вопрос происхождения династии Аштарханидов на основе произведения Махмуда ибн Вали «Бахр ал-асрар». Для решения данной

проблемы в качестве объекта исследования был определён труд «Бахр ал-асрар», являющийся первоисточником. В результате глубокого анализа рукописных копий произведения «Бахр ал-асрар» было установлено, что автор в четвёртом разделе VI тома данного труда подробно приводит генеалогию династии Аштарханидов, представители которой жили и осуществляли политическую деятельность вплоть до середины XVII века. Было доказано, что родословная Надр Мухаммад-хана через шестнадцать поколений восходит к Чингисхану. Также была составлена генеалогическая цепь от Чингисхана до Надр Мухаммад-хана. На конкретных примерах было объяснено, почему представители данной династии в ряде научных работ именуется «Джанидами» и «Тукай-Тимуридами», а также раскрыто происхождение термина «Аштарханиды». Кроме того, исследование ещё раз подтверждает важность укрепления родственных связей и приобретения высокого авторитета среди населения в процессе установления государственной власти.

Kirish. O‘zbek davlatchiligi tarixida bir yarim asrdan ko‘proq hukmronlik qilgan Ashtarxoniylar sulolasi o‘ziga xos ahamiyatga ega. Mazkur sulola vakillari Buxoro xonligida Shayboniylar hukmronligining so‘nggi yillarida xonlik ichki inqirozni boshdan kechirayotgan bir sharoitda boshqaruvni o‘z qo‘liga oladi. Tarixiy manbalarda “To‘qay Temuriylar” va “Joniylar” nomi bilan mashhur bo‘lgan ushbu sulola XVI asr ikkinchi yarmidan boshlab Movarounnahrdaagi ichki siyosiy jarayonlarda faol ishtirok eta boshlagan hamda hukmdor sulola bilan qarindoshlik aloqalarini o‘rnatish orqali davlat tuzilmasida muhim o‘rin egallagan. Ashtarxoniylar sulolasi hukmdorlari va mazkur sulola hukmronligi davrida Buxoro xonligida yuz bergan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy voqealar haqida hikoya qiluvchi tarixiy asarlarda mazkur sulolaning kelib chiqishiga doir ma’lumotlar bayon qilingan. Xuddi shunday tarixiy asarlardan biri 1631-1636 yillar oralig‘ida Ashtarxoniylardan dastavval Balx (1606-1642; ikkinchi marta: 1645-1651) keyinchalik Buxoro xoni (1642-1645) Nard Muhammadxon topshirig‘i asosida asl kelib chiqishi kasonlik Mahmud ibn Vali tomonidan fors tilida yozilgan “Bahr ul-asror fi manoqib ul-axyor” (“Oliyjanob kishilarning fazilatlarini haqida sirlar dengizi”) asari hisoblanadi [4: 6]. Mazkur kitobda tarix, geografiya, ilm nujum, etnografiya, hayvonot va nabotot olami, tasavvuf ilmiga doir

masalalar qatori To‘qay Temuriylar ya’ni Ashtarxoniylar va ularning ajdodlari haqida batafsil so‘z boradi [3: 8].

Adabiyotlar sharhi. “Bahr ul-asror” asari haqidagi dastlabki ma’lumotlarini V.V. Bartoldning tadqiqotlarida uchratamiz. U o‘zining 1904 yilda chop etilgan “Turkistonga safar bo‘yicha hisobot” kitobida ushbu asarning India Office kutubxonasida №575 inventar raqami ostida saqlanadigan nusxasi bilan 1899 yilda tanishganini aytib o‘tgan. 1902 yil yozida Toshkentdagi shaxsiy kutubxonalarni ko‘zdan kechirish chog‘ida general Jo‘rabek dodoxhning shaxsiy kutubxonasida asarning yana bir qo‘lyozmasiga duch keladi. Ayni damda O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Asosiy qo‘lyozmalar fondida №7418 inventar raqami ostida saqlanayotgan ushbu qo‘lyozma “Bahr ul-asror” tadqiqotchilari orasida “Jo‘rabek qo‘lyozmasi” nomi bilan mashhurdir. Mazkur qo‘lyozmani chuqur tahlil qilganiga ko‘ra, uni ko‘proq Sharqiy Turkiston tarixi qiziqtirgan. H. Ete o‘zining mashhur katalogida (1903) “Bahr ul-asror” VI jildi to‘rtinchi ruknining original nusxasi tashqi belgilari haqida ma’lumot beradi. “Bahr ul-asror” asarining qo‘lyozma nusxalarini chuqur o‘rganishga B.A. Ahmedov katta hissa qo‘shgan. U o‘zing qator tadqiqotlarida ushbu asardan keng foydalangan. 1977 yilda asarning tarixiy geografiyaga doir qismini rus tiliga tarjima qilib, tadqiqot va ko‘rsatkichlar qismi bilan birgalikda nashr etgan. “Bahr ul-asror” asari bo‘yicha chuqur izlanishlar olib borgan tadqiqotchilardan biri bu afg‘onistonlik Moyil Hiraviy hisoblanadi. U 1981 yil asar VI jildi to‘rtinchi ruknining Balx tarixiga doir qismini (305a – 374b) tabdil qilib, tadqiqot va ko‘rsatkichlar qismi bilan birga nashr qilgan. Pokistonlik olimlardan Riyoz ul-Islom 1980 yilda asar muallifining Hindiston va Sarandibga sayohati qismini tabdil qilib, olib borgan tadqiqot natijalari bilan birga chop qilgan. Pokistonlik mualliflar jamoasi “Bahr ul-asror” asarining I jildi ruknida tadqiqot olib borib, uning bir qismini tadqiqot va ko‘rsatkichlar bilan birga 1984 yilda nash etgan. “Bahr ul-asror” asarida keltirilgan To‘qay Temuriylar davlatining ijtimoiy-siyosiy holatini chuqur o‘rganib, mazkur mavzu yuzasidan nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan tadqiqotchi A.K. Alekseyev o‘zining tadqiqotlari bo‘yicha 2006 yilda alohida monografiya chop qilgan. Mazkur olim u yoki bu darajada asarda Ashatarxoniylar sulolasining shajarasi bo‘yicha keltirilgan ma’lumotlardan istifoda etgan.

Metodologiya. Mazkur tadqiqot davomida “Bahr ul-asror”ning qo‘lyozma nusxalarida kelgan ma’lumotlarni tahlil qilishda manbashunoslikning bir qator metodlaridan foydalanildi. Xususan, paleografik tahlil yordamida asarning yozib tugatilgan vaqti, ko‘chirgan kotibi, xat turi va boshqalar aniqlandi. Berilgan ma’lumotlarni davriy ketma-ketlikda keltirishda davrlashtirish metodidan foydalangan bo‘lsa, murakkab jumlar va so‘zlardan ma’no chiqarishda germeneytik metoddan istifoda etildi.

Muhokama va natijalar. Tadqiqot natijasida birlamchi manba – “Bahr ul-asror” asari ma’lumotlariga tayanib, Ashtarxoniylar sulolasining shajarasi Chingizxonga borib taqalishi isbotlandi. Olingan natijalar hosilasi o’laroq Chingizxondan Nadr Muhammadxongacha xonadon shajara zanjiri tuzildi.

Asl kelib chiqishi kosonlik (hozirgi Namangan viloyati, Kosonsoy tumani) bo’lgan Mahmud ibn Valining qalamiga mansub “Bahr ul-asror fi manaqib ul-axyor” (“Olijanob kishilarning fazilatlari haqida sirlar dengizi”) asari eslatib o’tilganidek, Ashxtarxoniy hukmdorlardan Nadr Muhammadxon topshirig’iga binoan 1631-1636 yillar oralig’ida fors tilida yozilgan. O’zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunonlik instituti Asosiy qo’lyozmalar fondida №2372 inventar raqami ostida saqlanadigan “Bahr ul-asror” asari I jildi qo’lyozma nusxasida keltirilishicha, Mahmud ibn Vali mazkur asarni fotiha, yetti jild (har bir jild alohida to’rt rukndan tashkil topgan) va xotima qismlaridan iborat shaklda yozishni rejalashtirgan [2: 3b]. Hozirgacha “Bahr ul-asror”ning faqat I va VI jildlari aniqlangan bo’lib, mazkur jildlarning turli ruknlarini o’z ichiga oluvchi qo’lyozma nusxalari O’zR FA SHI (№1375, №1385, №2372 va №7418) va Londondagi India Office kutubxonasida (№575) saqlanadi [6: 38-40].

Ushbu tadqiqot doirasida ko’rib chiqilishi rejalashtirilayotgan Ashtarxoniylar sulolasining kelib chiqishiga doir ma’lumotlar India Office kutubxonasida №575 inventar raqami ostida saqlanayotgan “Bahr ul-asror”ning VI jildi to’rtinchi ruknining qo’lyozma nusxasida keltirilgan. Mazkur qo’lyozma original nusxa bo’lib, saroy kotibi Shoh Qosim tomonidan Nadr Muhammadxon kutubxonasi uchun muallifning asl nusxasidan ko’chirilgan. H. Etening ma’lumotlariga ko’ra, qo’lyozma nasta’liq xatida, O’rta Osiyoda ishlab chiqarilgan qog’ozda ko’chirilgan bo’lib, 409 ta ikki tomonlama (a-b) varaqdan iborat [7: 229-230]. Mahmud ibn Vali “Bahr ul-asror”ning turli o’rinlarida she’riy parchalardan foydalangan. Ba’zi o’rinlarda matndagi badiiy ifodani kuchaytirish uchun qo’llanilgan she’riy parchalar ayrim o’rinlarda butun boshli ma’noni o’ziga jamlagan. V.V. Bartold mazkur qo’lyozma bilan 1899 yildayoq tanishganligini ma’lum qilgan.

Mahmud ibn Vali “Bahr ul-asror”ning mazkur jildida Chingizxonning o’g’li Jo’jixon avlodlari, XIV-XVI asrlarda Dashti Qipchoqda yuz bergan siyosiy voqealar va taxt uchun kurashlar, Mingqishloqxonning Movarounnahrda ko’chib o’tishi, XVI asr oxirlarida Movarounnahrdagi siyosiy vaziyat, To’qay Temuriylar sulolasining Buxoro xonligi boshqaruvini o’z qo’liga olishi, Din Muhammadxon, Boqi Muhammadxon va Vali Muhammadxonlarning hukmronlik tarixi, Imomqulixon va Nadr Muhammadxon davrida mamlakatda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqealar, qo’zg’olonlar, qozoq xonlarining muttasil istilosi hamda Ashtarxoniylarning Boburiylar va Safaviylar bilan o’zaro munosabatlari haqida qimmatli

ma'lumotlar keltirilgan. Shu bilan birga ushbu jildda Buxoro va uning atrofida joylashgan tarixiy obyektlar, maqbaralar, mozorlar, Buxoro va Balx saroylarida xizmat qilgan amirlar amaldorlar hamda diniy-madaniy hayotda muhim o'rin egallagan shayxlar, olimlar, shoirlar va donishmandlar biografiyasiga oid ma'lumotlarni uchratish mumkin. Mazkur ruknda xotima qismi ham mavjud bo'lib, unda turk-mo'g'ul qabilalari, XVII asr birinchi yarmida Ashtarxoniylar saroyidagi rasmiy qabul marosimi va Mahmud ibn Valining Hindiston va Sarandibga qilgan sayohati tafsilotlari bayon qilingan.

№575 raqamli qo'lyozmaning 1b – 8a varaqlarida muallifning “Bahr ul-asror” asarini yozish topshirig'ini olgani, uni ta'lif etishdan ko'zlangan maqsad, Chingizxon avlodlari, jumladan, Jo'jixonning farzandlari haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Mazkur qo'lyozmadagi “To'qay Temurxon ibn Jo'jixon ibn Chingizxon va uning farzandlari va avlodlari zikri” nomli hikoyada To'qay Temuriylarning shajarasi keltirilgan [1: 2b]. Unda keltirilishicha, To'qay Temurxon Jo'jixonning o'n to'rtta farzandidan beshinchisi bo'lib, uning onasi Qo'ng'iro't ulusi boshlig'ining qizi Sartoq xotun bo'lgan [1: 3a].

To'qay Temurxon Berkaxon ibn Jo'jixon hukmronligining so'ngi yillarida olamdan o'tgan. U Berkaxon sharofati bilan islom dinini qabul qilgan va uning barcha avlodlari islom diniga e'tiqod qilishgan. Uning to'rtta xotini va besh yuzta kanizagi bo'lgan. To'qay Temurxonning birinchi xotini Ko'rk'lik (Ko'rklik) Begi Nayman ulusi boshlig'ining qizi bo'lgan va undan to'rtta farzand dunyoga kelgan. Ular Avrang Temur Sulton, Uzantemurxon yoki O'ztemurxon, Boy Temurxon va Poyon Sulton [1: 3a-b]. Avrang Temurxonning farzandi bo'lmagan. Uzantemurxonning to'rtta o'g'li bo'lib, ular quyidagicha: Qaroqiz Sulton, Soricha Sulton, Aboy (Abay) Sulton va Xo'ja Sulton [1: 3b].

Aboy (Abay) Sultonning to'rtta o'g'li bo'lib, ular Quriqa Sulton, Imkon Sulton, Numg'on Sulton va Mingasarxon. Quriqa Sultonning Umar ismli va uning Qora Kebek ismli o'g'li bor edi. Qora Kebekning ikki farzandi bor edi. Biri Tanibek, boshqasi esa Jonibek. Birinchisining So'fichoq Sulton, ikkinchisining Xizr Xo'ja Sulton ismli o'g'illari bor edi. Imkon ibn Aboy Sultonning farzandi yo'q edi. Ammo Numg'onxon ibn Aboyning Qutluq Temur Sulton ismli farzandi bor edi. Qutluq Temur Sultonning uchta o'g'li bo'lib, ular Temurbekxon, Qutluq Temurxon va Guncha Sultondir [1: 4a]. Temurbekxonning ikki qizi va ikki o'g'li bor edi. O'g'illari Temur Qutluqxon va Ali Sulton, qizlari Xon Malakbegi va Totlibegi. O'zbekxon va Jonibekxon bilan bir davrda yashagan Temur Qutluqxonning to'rt o'g'li va ikki qizi bor edi. O'g'illari Po'lod Sulton, Temurxon, Yodgor Sulton va Nosir Sulton, qizlari esa Maxtuma Sultonam va Sarvar Sultonam. Temurxonning Muhammad nomlik farzandi va uning esa to'rt nafar o'g'li bor edi. Ular quyidagicha: Mahmudxon, Javoq Sulton, Ahmadxon va Boshbol Sulton. Mahmudxonning besh

nafar o'g'li bo'lib, ular Qosimxon, Buzturg'oy Sulton, Abdulkarimxon, Keldibek Sulton va Muzaffar Sulton. Qosimxon (Sulton)ning Jonibekxon ismli o'g'li bor edi [1: 4a].

Javoq Sultonning uch nafar farzandi bo'lib, ular Ya'qub Sulton, Baxshoyish Sulton va Mingqishloqxon edi. Ya'qub Sultonning ikki o'g'li bo'lib, birining ismi Oqbuboy Sulton, boshqasini esa Oqbudmamox Sulton edi. Baxshoyish Sultonning farzandi yo'q edi. Mingqishloqxonning esa ikki o'g'li va uch qizi bor edi. O'g'illarining ismi Yormuhammadxon va Mengli Gerey Sulton, qizlariniki esa Tursunbegi xonim, Marjon xonim va Hasan xonim edi. Mingqishloqxon davrida mazkur sulola vakillari Dashti Qipchoqdan Movarounnahrda ko'chib o'tadi va Mingqishloqxonning katta o'g'li Yormuhammadxon Shayboniylardan Iskandarxonning qiziga uylanadi [1: 4a]. Yormuhammadxonning ikki ayolidan olti o'g'il va ikki qiz dunyoga keladi. O'g'illarining ismi Jonibekxon, Abbos Sulton, Muhammad Sulton, Malik Sulton, Rahmanquli Sulton va Tursun Sulton, qizlariniki esa Oyisha va Manida yoki Manija xonim bo'lgan.

Yormuhammadxonning katta o'g'li Jonibekxondan to'rtta o'g'il va ikki qiz qolgan. O'g'illari Din Muhammadxon, Boqi Muhammadxon, Vali Muhammadxon va Olim Sulton, qizlari esa Ajab xonim va Amma xonim. Din Muhammadxonning uch ayoli ya'ni Mirzo Haydar Orlot qizi Ofoq xonim, Mirzo Abulqosim Rizaviy qizi Shahribonubegim va Mirzo Qunduziy qizidan ikki o'g'il va uch qiz dunyoga keladi. Imomqulixon va Fotima Sulton xonim Din Muhammadxonning birinchi ayolidan, Nadr Muhammadxon va Oyibibi ikkinchi ayolidan hamda Sharifabegim uchinchi ayolidan dunyoga kelgan [1: 4a].

“Bahr ul-asror” asari VI jildi to'rtinchi rukni muqaddima qismida Ashtarxoniylar sulolasi a'zolari haqida berilgan ma'lumotlardan foydalanib, Nadr Muhammadxon ibn Din Muhammadxon ibn Jonibekxon ibn Yormuhammadxon ibn Mingqishloqxon ibn Javoqxon ibn Muhammadxon ibn Temurxon ibn Temur Qutluqxon ibn Temurbekxon ibn Qutluq Temur Sulton ibn Numg'onxon ibn Oboy yoki Abayxon ibn Uzan yoki O'ztemurxon ibn To'qay Temurxon ibn Jo'jixon ibn Chingizxonning shajara daraxtini quyidagi tartibda keltirishimiz mumkin:

Mahmud ibn Vali “Bahr ul-asror” asarining VI jildi to'rtinchi ruknida mazkur kitobni 1045 yil 11 shavvol/ 1636 yil 18 mart kuni yozib tugatganini ma'lum qiladi [1: 409a]. Ushbu ruknning 235a – 274a varaqlaridagi ma'lumotlar keyinchalik qo'shilgani va undagi so'nggi voqea sifatida Imomqulixonning elchisi Balxdan 1050 yil shavvol oyining o'rtasi/ 1641 yil yanvarda jo'nab ketganini inobatga oladigan bo'lsak [5: 256], asarda nomi zikr qilingan so'nggi Ashtarxoniylar shahzodalar Abdulaziz va Subhonquli ekanligi anglashiladi. “Bahr ul-asror” asarida Ashtarxoniylar sulolasining qolgan vakillari haqida ma'lumot yo'q.



Yuqorida “Bahr ul-asror” asarida keltirilgan batafsil ma’lumotlar orqali Nadr Muhammadxon To’qay Temurxon ibn Jo’jixon ibn Chingizxonning avlodidan ekanligi anglashildi. Bundan oldin mazkur sulola “To’qay Temuriylar” va “Joniylar” nomi bilan atalishini ham eslatib o’tgan edik. Xo’sh unda Buxoro xonligida bir yarim asrdan ko’proq hukmronlik qilgan Ashtarxoniylar sulolasi nomi qayerdan olingan degan savol tug’iladi? Ashtarxon (Astraxan) joy nomi bo’lib, Volga daryosining chap qirg’og’idagi shaharni shunday nomlashgan. Bu shahar tarixiy manbalarda “Hojitarxon” nomi bilan qayd etilgan. Ibn Battuta ham mazkur shaharni Hijitarxon deb eslatgan [8: 11]. “Ashtarxon” (اشترخان) so’ziga “i” (ی) “yo-ye nesbat” (نسبت یای) nisbiylik, biron bir yerga mansublik qo’shimchasi qo’shilishi natijasida undan “Ashtarxoniyy” (اشترخانی) “ashtarxonlik” yoki “ashtarxonga mansub” so’zi yasalib, unga “on” (ان) ko’plik qo’shimchasi qo’shilishi natijasida “Ashtarxoniyon” (اشترخانیان) “Ashtarxoniylar” hosil

bo'lmoqda. Sodda qilib aytadigan bo'lsak, mazkur sulola vakillari ajdodlari yashagan makondan kelib chiqqan holda "Ashtarxoniylar" deb nomlangan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, "Bahr ul-asror" VI jildi to'rtinchi rukni muqaddima qismida muallif Ashtarxoniylar sulolasining kelib chiqishi, sulola tarmoqlari va vakillariga batafsil to'xtalib o'tgan. Mahmud ibn Vali mazkur asarni Nadr Muhammadxon topshirig'iga binoan yozganligi sababli ushbu hukmdor faoliyatiga alohida urg'u bergan. Ashtarxoniylarning dastavval Dashti Qipchoq, jumladan, Hojitarxon hududlarida yashab faoliyat yuritib, keyinchalik Movarounnahr hududiga ko'chib, hukmdor xonadon bilan yaxshi aloqaga ega bo'lib, keyinchalik boshqaruvni qo'lga olishiga e'tibor qaratilgan. Mazkur tadqiqot doirasida amalga oshirilgan izlanishlar natijasida "Bahr ul-asror" asaridagi ma'lumotlar asosida Ashtarxoniylar sulolasining kelib chiqishi masalasi ko'rib chiqildi va sulolaning To'qay Temurxon ibn Jo'jixon ibn Chingizxonga borib taqalishi isbotlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mahmud ibn Vali. Bahr ul-asror. Qo'lyozma (fotokopiya). – London: India Office, №575. – 409 v.
2. Mahmud ibn Vali. Bahr ul-asror. Qo'lyozma. – Toshkent: O'zR FA SHI AQF, №2372. – 533 v.
3. Алексеев. А.К. Политическая история Тукай-Тимуридов. – Санкт-Петербург: С.-Петербургского университета, 2006. – 229 с.
4. Ахмедов Б.А. Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных. – Ташкент: Фан, 1977. – 168 с.
5. Бартольд В.В. Отчёт о командировке в Туркестан. – СПб.: Тип. Имп. АН, 1904. – 280 с.
6. Пищулина К. А. «Бахр ал-асрар» Махмуда ибн Вали как источник по социально-экономической истории Восточного Туркестана XVI-XVII вв. // Казахстан, Средняя и Центральная Азия в XVI-XVIII вв. А.-А.: Наука, 1983. – С. 34-88.
7. Ethe H. Persian Manuscripts in the Library of the India Office. – Vol. I. – Oxford, 1903. – 1632 p.
8. بخش بلخ تاریخ بحر الاسرار فی مناقب الاخیار. محمد بن امیر ولی کتابدار. تصحیح، تعلیق و فہارس: مایل. ہروی. – کابل: فرهنگستان علوم افغانستان، 1981. – 354 ص.